



“QANDLI DIABETDA BIRINCHI YORDAM”

Eshpulatova Nafisa Oybekovna

Alfraganus Universiteti Tibbiyot yo'nalishi Davolash fakulteti 1-kurs talabasi

Qandli diabet o'zi nima?

Qandli diabet, qand kasalligi — organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Abu Ali ibn Sino bu dardga alohida e'tibor beradi. "Suv qanday ichilgan bo'lsa, shu holda chiqadi", deb yozadi u. Bemorning ko'p suv ichishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqaradi va bemor juda ozib ketadi. Davolarga to'xtab tabib: "Bemorga sovuq mizojli suyuqliklar ichir, sovuqjomga sol, nordon ayron ichir, mevalar ber, yalpiz damlab ichir, ya'ni bemorni ho'lla, sovut", deydi. Bu — kasallik odam badanida issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo'lishini bildiradi. Qand kasalligi tarixiy tibbiy manbalarga ko'ra, nasliy bo'lishi ham mumkin. Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin ko'payib, siydik bilan chikib turadi (tarkibida qand moddasi bo'ladi), tashnalik, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

Qandli diabetning turlari:

Kasallikning irsiy yoki hayotda orttirilgan, shuningdek, insulinga bog'liq (diabetning 1 turi) vainsulinga bog'liq bo'lmagan (diabetning 2turi) turi farq qilinadi.

Diabetning 1 turi ko'pincha o'smirlik yoshida uchraydi. Bunda bemor organizmida me'da osti bezi hujayralari insulin ishlab chiqara olmaydi va ularni davolashda qand miqdorini pasaytirish maqsadida insulin preparatlari qo'llanadi.

Qandli diabetning 2turida me'da osti bezi orolcha hujayralaridan insulin ishlab chiqarish saqlanib qoladi, bunda qon tarkibidagi insulin miqdori me'yorida yoki undan sal yuqoriroq bo'ladi. Biroq to'qimalarning insulinga nisbatan sezgirligi keskin pasayishi tufayli to'qimalar tomonidan glyukozani o'zlashtirish hamda foydalanish kamayadi va u qon tarkibida to'planib qoladi, natijada qonda qand ko'payib, siydik bilan chiqib turadi, bemor juda semirib ketadi. Diabetning bu turi bilan, asosan, o'rta va keksa yoshdagilar kasallanadilar. Kasallik asta-sekin, zimdan rivojlanadi, u boshlanishida og'iz qurishi, chanqash, ozish kabi alomatlar yaqqol bilinmaydi. Bemorni ko'proq holsizlanish, toliqish, tashnalik bezovta qiladi.



Qon tarkibidagi glyukoza miqdori yuqori bo'lishiga qaramay, diabetning 2turida qon tarkibida atseton modsasining ortishi va uning siydikda paydo bo'lishi juda kam kuzatiladi. Bunday bemorlar insulin qabul qilmay yashashlari mumkin. Ularga parhez, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, qand miqdorini kamaytiruvchi dorilar qabul qilish yaxshi naf beradi.

Qandli diabetning a'zolar bilan to'qnashuvi:

Qandli diabet — bir umrlik kasallik, uni butun hayot davomida davolash zarur. To'lato'kis davolanmaydigan va qon tarkibidagi glyukoza miqdori uzoq vaqt yuqori saqlanadigan bemorlarda Qandli diabetning tomir asoratlari — diabetga xos angiopatiyalar (makro va mikroangiopatiyalar) namoyon bo'ladi.

Bu barcha a'zolarning (teri, muskullar, nerv va h.k.) kapillyarlarini shikastlaydi. Diabetga xos mikroangiopatiyalar buyrak, ko'z, oyoq va boshqalar a'zolarida ko'proq va ertaroq kuzatiladi. Qandli diabet ateroslerozning rivojlanishi, o'z navbatida yurakning ishemik kasalligi (stenokardiya, miokard infarkti), miyada qon aylanishining buzilishi (bosh aylanishi, miya insulti) va h.k. ga olib keladi.

Qandli diabetda davo choralari:

Qandli diabetning har ikkala turida ham davolashdan asosiy maqsad iloji boricha qondagi qand miqdorini sog'lom kishilardagi ko'rsatkichga yaqinlashtirish, ya'ni kompensatsiya holatiga erishishdir. Qondagi qand miqdorini me'yorida saqlab turishning asosiy yo'li qondagi glyukozani iloji boricha tez-tez aniqlash; bunday nazorat Qandli diabetning insulinga bog'liq 1 turida juda zarur. Uy sharoitida mustaqil holda qondagi glyukoza miqdorini aniqlashda maxsus reaktiv qog'ozlardan foydalanish mumkin. Buning uchun ukol igna yordamida barmoqdan bir tomchi qon reaktiv qog'ozga olinadi (qon qog'ozni bir chetidagi chiziqchalarga tushiriladi). Bir daqiqadan so'ng qog'ozdagi qon paxta bilan artib tashlanadi va yana bir daqiqa o'tgach, reaktiv qog'oz rangi shkala bilan solishtiriladi. Rangi eng yaqin bo'lgan shkala ko'rsatkichi shu qondagi glyukoza miqdorini mmol/l (mg%) da ifodalaydi. Xuddi shunday usulda uy sharoitida siydikdagi qand miqdorini ham bemorlarning o'zlari mustaqil maxsus reaktiv qog'ozlar yordamida aniqlashlari mumkin. Agarda qonda yoki siydikda glyukoza miqdori baland bo'lsa, darhol tegishli davo muolajalarini amalga oshirish lozim. Bulardan tashqari, bemorlar tana vaznlarini ham haftada bir marotaba nazorat qilishlari hamda uni o'z bo'yi, yoshi va kasbiga mos bo'lgan me'yorda saqlab turishlari kerak.



Qandli diabetda davo har bir bemorning umumiy ahvoli, kasallik alomatlari, qon, siydik tahlili vaboshqalarga qarab tayinlanadi, u bosqichmabosqich olib boriladi. Davolanish muddati kasallikning og'irengilligi, o'tkazib yuborilgan yoki yangiligi vaturiga bog'liq.

Qandli diabetning ikkinchi toifasi haqida nimalarni bilasiz? Oddiy qilib aytganda, bu qon qabul qilmaydigan darajada glyukoza miqdorining ko'tarilishidir. Tanadagi "erkin" shakar miqdori salbiy holatlarni paydo qilmasligi uchun qandli diabetning dastlabki belgilarini kuzatib borish juda muhim. O'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish va turmush tarzini o'zgartirish qandli diabetning jiddiy va noxush oqibatlarining oldini oladi.

Qandli diabetning ikkinchi toifasi keng tarqalgan kasallik bo'lib, birgina Amerikada qandli diabetdan 30 million kishi aziyat cheksa, 84 million kishi kasallikning ikkinchi toifasiga chalingan. Ikkinchi toifadagi bemorlarda qonda shakar miqdori doimiy ravishda ko'tarilib turadi. Ammo turmush tarzi o'zgartirilmasa, davolanilmasa, kasallikning alomatlari o'z-o'zidan qandli diabetga aylanadi – dastlabki belgilar kuzatilgandan so'ng taxminan besh yil o'tib, kasallik to'liq shakllana boshlaydi.

Qandli diabetning ilk alomati yashirin bo'ladi va shu holatda rivojlanadi, ayniqsa, dastlabki bosqichlari yengil o'tadi. Qandli diabetning dastlabki belgilari qandayligi va uning xavfli omillari haqida iloji boricha ko'proq ma'lumotga ega bo'lish zarur.

Qandli diabetdan oldingi va ikkinchi toifasida kuzatiladigan alomatlar:

❖ Tez-tez peshob chiqarish

Qonda qand miqdori yuqori bo'lsa, buyraklar ortiqcha glyukozani peshob orqali chiqarishga harakat qiladi. Shuning uchun qandli diabet oldi odamlar tez-tez, ayniqsa, kechasi ko'proq hojatxonaga chiqadi. ❖ Qattiq chanqoq

Birinchi belgi o'z-o'zidan ikkinchi belgini keltirib chiqaradi. Tez-tez peshob, tabiiyki, tananing suvsizlanishga olib keladi va odam doimo chanqaydi. Ushbu holatdagi odamlar qanchalar ko'p suyuqlik ichmasin, tanada uning miqdori yetmaydi. Shuningdek, tanada peshob bilan birga chiqib ketadigan elektrolitlar – kaliy, magniy va boshqa minerallar ham kamayadi.

❖ Doimiy ochlik

Nafaqat chanqoq balki ochlik hisi ham qandli diabetning ikkinchi toifasi xabarchisi bo'lishi mumkin. Hazm qilish tizimi oziq-ovqatlarni oddiy shakarga aylantiradi, keyinchalik organizm undan foydalanadi. Qandli diabet bilan og'rigan odamlarda qon oqimidagi glyukoza hujayra



devorlariga kira olmaydi. Natijada qanchalik ko'p ovqat tanovul qilinmasin, diabet oldi va ikkinchi toifadagi bemorlar ochlikni his qiladi, sababi tana chindan ham och qolgan bo'ladi.

❖ Doimiy charchoq

Qandning samarasiz parchalanishi va so'rilishi, aytib o'tilganidek, tana to'qimalarining ochligiga olib keladi. Bu esa doimiy charchoq va sustlikni keltirib chiqaradi.

❖ Ko'rishda muammosi

Qondagi ortiqcha miqdordagi shakar qon tomirlari va kapilyarlariga zarar yetkazadi – ularning devorlari yanada mo'rtlashadi. Bu orqali ko'zning ko'rish qobiliyati pasayadi, tasvir xiralashadi.

Aytish kerakki, muammo bir ko'zda yoki ikkalasida birdan o'zini namoyon qilishi mumkin. Bunday vaqtda qandli diabetni davolash ishlari boshlanmasa, vaqt o'tishi bilan ko'rish qobiliyati yo'qolishi mumkin. Bundan iloji boricha ehtiyot bo'lish zarur.

❖ Sog'liqni qayta tiklash tezligining pasayishi

Hech kim o'z-o'zidan tanaga jarohat yetkazmaydi. Oddiygina uy hayvoni, masalan, mushuk tirnab olgan yaraning tuzalishi va bitishi uchun ham hafta, balki oylar kerak bo'ladi. Bu ham qandli diabet belgilarining alomatidir. Sababi qon tomirlari va kapilyarlarning devorlari qondagi qand miqdoridan aziyat chekadi, organizm endi yangilanish uchun yetarli resurslarga ega emas. Yaralarning sekin bitishi infeksiya yuqish darajasini orttiradi.

❖ Oyoq va qo'l uchlarining uvishishi va og'riq

Shakar qon aylanishiga ta'sir o'tkazadi, bu esa asab tolalarini shikastlaydi. Kasallikning ikkinchi toifasidagi odamlarda bu og'riq, karaxtlik va barmoqlar yoki oyoq uchlarida uvishish paydo qiladi. Ayniqsa, u oyoq uchida ko'proq kuzatiladi. Ushbu holat neyropatiya deb ataladi va boshqa alomatlar singari vaqt o'tishi bilan yomonlashishi mumkin.

❖ Terining qorayishi

Ba'zi joylarda teri qalinlashishi va rangda o'zgarish kuzatiladi. Odatda bo'yin, qo'litiq osti, bo'g'im terisi va tirsaklarda bu kabi holatlar bo'lishi mumkin.

❖ Qichishish va toshma

Qon va peshob tarkibidagi ortiqcha glyukoza zamburug'lar va bakteriyalarni ko'paytiradi. Albatta, bakteriyalar o'z navbatida og'iz, qo'litiq osti sohalarida paydo bo'ladi. Muammoli joylar odatda



yallig'lanadi va qichishadi, teri yuzasida turli toshma va et ko'chishi kuzatiladi. Qandli diabetning belgilari:

Qandli diabetni davolamaslik butun vujudga katta ta'sir ko'rsatadi, bu esa sog'liq va hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Kasallik bilan og'rigan odamlarda ko'pincha boshqa zaifliklar ham birga xuruj qiladi:

- yurak bilan bog'liq muammolar;
- insult;
- asab shikastlanishi;
- oyoq og'rig'i;
- buyrak kasalligi;
- ko'rish qobiliyatining susayishi;
- erkak va ayollarda jinsiy kasallik.

Shakardan voz kechilsa organizmda qanday o'zgarishlar yuz beradi?

Bosh aylanishi, oyoq uvishishi, xurak. Zudlik bilan shifokor ko'rigiga borishni taqozo etadigan simptomlar

Qandli diabetdan himoyalalanish uchun amal qilinishi kerak bo'lgan tavsiyalar qanday ma'lumotlar nisbiylikini unutmaslik kerak, chunki Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining fikricha, har ikki insondan bir nafari o'zida qandli diabet borligini bilmaydi.

Diabetning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, tanamiz qudratini oshirish lozim. Vujudning har bir to'qimasiga quvvat beradigan mahsulotlar iste'mol qilish kerak. Chunki kuchli immunitet kasalliklarni "tiz cho'ktiradi". Ortiga qaramasdan qochishga majbur qiladi. Alhadaya qora sedana yog'i immunitetni oshirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Sh.M.Rahimov , F.K.Gafforov , G.A.Ataxodjayevning "Ichki kasalliklar" kitobi.

2.A.Gadayev, M.Sh.Karimov, X.S.Axmedovning "Ichki kasalliklar propedevatikasi kitobi.

3.M.F.Ziyayevning "Terapiya" kitobi.

4.A.N.Aripov , D.A.Nabiyeva , A.G.Gadayevning "Ichki kasalliklar" kitobi.

5.E.Y.Qosimov , Sh.G.Muqminova , B.N.Nuritdinovning "Ichki kasalliklarning propedevatikasi" kitobi.



6.R.A.Qoraboyeva , A.H.Hasanov , H.A.Xo'jayevaning "Ichki kasalliklar propedevkasidan qo'llanma" kitobi.

7.Abdig'affor Gadayevning "Ichki kasalliklar" kitobi.

